

## LOGOPEDIYA

### Xojiboyeva Dinora Bahtiyor qizi

Toshkent kimyo xalqaro universiteti Maxsus pedagogika yo'nalishi 2- bosqich talabasi

**ANNOTATSIYA:** Ushbu maqola Logopediya haqida bo'lib, nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarni nutqini to'g'irlash va davolash, Logopediyaning qanday fanligi, vazifalari hamda logopedlarning vazifalari haqida.

**KALIT SO'ZLAR:** Logopediya, duduqlash, og'zaki nutq, yozma nutq, yozish, o'qish, nutq, faoliyat, talaffuz, leksik, grammatik, tafakkur, xotira, idrok, ruhiy faoliyat, dislaliya, rinolaliya, dizartriya, anartriya dislaliya, rinolaliya, dizartriya, anartriya, tahilaliya, bradilaliya, duduqlanish, alaliya, afaziya.

**KIRISH:** Logopediya (logos va yunon tilidan olingan bo'lib, tarbiyalash, o'qitish degan ma'noni anglatadi.) Logopediya nutqdagi kamchiliklarini duduqlanish til rivojlanmaganligi, o'qish va yozuvdagi kamchiliklari va sabablari ularning oldini olish va to'g'irlashni o'rganadigan fan hisoblanadi. Nutqdagi nuqsonlarni tuzatish masalalari dastlab 17-asrda Yevropa mamlakatlarida surdopedagogikaga oid ilmiy ishlarda tatbiq etila boshlagan. 19-asrning 2-yarmidan bu sohaga mustaqil ravishda tibbiyot nuqtai nazaridan yondashilgan. Asta-sekin nutq faoliyatining tabiati haqidagi ilmiy tasavvur kengaya borib, Logopediya yo'nalishi tubdan o'zgargan. 20-asrga kelib Logopediya mustaqil fan sifatida shakllangan, uning maqsad va vazifalari, metodik asos va tamoyillari, boshqa fanlar bilan aloqasi masalalari ishlab chiqilgan. Hozirda judayam yaxshi rivojlanib turli bo'limlarga bo'linadi.

1. Zamonaviy Logopediya
2. Maktabgacha yoshdagi bolalar Logopediyasi
3. Maktab yoshidagi bolalar Logopediyasi
4. O'smirlar va katta yoshdagilar Logopediyasiga bo'lingan.

**ASOSIY QISM:** Logopediyaning asosiy maqsadi nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qitish, tarbiyalash va nutq nuqsonining oldini olishdan iboratdir. Logopediya fan sifatida katta nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lib, u tilning, nutqning ijtimoiy mohiyati hisoblanadi. Bolaning talaffuzi, leksik-grammatik tuzumi, tafakkuri, xotirasi, idroki va va butun bir ruhiy faoliyati bilan uzviy bog'liqligi bilan belgilanadi. Logopediyaning asosiy vazifalari: nutq buzilishining turli shakllarini o'rganish, nutq faoliyati ontogenezini o'rganish, nutq buzilishlarining keng tarqalganligi, kelib chiqish sabablari, mexanizmlari, tuzilishi, alomatlari va darajalarini aniqlash; nutqiy faoliyati

buzilgan bolalarning o‘z-o‘zidan va biror maqsadga qaratilgan rivojlanish dinamikasini, shuningdek, nutqiy zaiflikni ularning shaxs sifatida yetishuviga, ruhiy rivojlanishiga, o‘zlarini tutishlariga ta‘sirini aniqlash; rivojlanishda turli xil farqlar bo‘lgan bolalarda (Masalan: eshitish, ko‘rish, fikrlash qobiliyati hamda tayanch-harakat apparatining buzilishi hollarida) nutqning shakllanishi va buzilishlari xususiyatlarini o‘rganish; nutq buzilishlarining pedagogik diagnostikasi metodlarini ishlab chiqish; nutq buzilishlarini tartibga solish; nutq buzilishini bartaraf etish tamoyillari, differensiyalashgan metod va vositalarini ishlab chiqish; nutq buzilishining oldini olish metodlarini takomillashtirish; logopedik yordamni tashkil etish masalalarini ishlab chiqishdir .


Logopediya nazariy yo‘nalishi nutqdagi buzilishlarni o‘rganish, uning sabablarini aniqlash, oldini olish va tuzatishning ilmiy asoslangan metodlarini ishlab chiqish, amaliy yo‘nalishi esa ana shu metodlarni tezroq tatbiq etib, mazkur nuqsonlar va ularni keltirib chiqaradigan sabablarni bartaraf etishdan iborat. Logopediyaning nazariy va amaliy vazifalari bir-biri bilan chambarchas bog‘liqdir.

### NUTQ BUZULISHLARI TASNIFI


#### 1. Fonetik-fonematik

#### 2. Leksik-lug‘aviy


#### 3. Grammatik



### OG‘ZAKI NUTQ BUZILISHI



## YOZMA NUTQDAGI KAMCHILIKLAR



## OG'ZAKI NUTQ BUZILISHI TASNIFI

1. **Disloliya** - ( dis – izdan chiqish, aniqlash , buzilish , laliya –nutq degan ma'noni bildiradi .) tovushlarni noto'g'ri talaffuz etish bilan ifodalanadigan nutq nuqsonidir .
2. **Rinololiya** – dimoqdan , dimoq bilan gapirish , tovushlar talaffuzi va ovoz tembrining nutq aparatidagi anatomik – fiziologik kamchiliklari , o'zgarishlari natijasida buzilib aytilishidir .
3. **Dizartriya** – so'zlarni to'la , ravon talaffuz qila olmaslik ,talaffuz nuqsonidir.
4. **Anartriya** – bola nutqini tushunib bo'lmaydi, bola xuddi og'ziga talqon solib gapirayotgandek tuyiladi. Lekin atrofdagilar nutqini bola yaxshi tushunadi, idrok etish qobiliyati nisbatan saqlangan bo'ladi .

**Ovoz buzilishi** : Ovoz –o'pkadan chiqayotgan havoning hiqqildoqdagi ovoz boylamlarining tebranishidan har xil balandlikka ,kuch va tembirda hosil bo'ladigan tovushlar yig'indisidir. Demak ovoz hiqqildoqda hosil bo'ladi . Hiqqildoqda ko'ndalang joylashgan elastik yupqa tovush boylamlari mavjud bo'lib , bular so'zlash paytida , o'pkadan chiqadigan havo oqimining kuchi bilan tebranadi , shularning tebranishida ovoz hosil bo'ladi . Unli va jarangli undosh tovushlari ovozi anashu tovush boylamlarining hiqqildoq bo'shligi'da tebranishi natijasidir . Jarangsiz undoshlar hosil bo'lishida bu boylamlar tebranmaydi , ularning orasi ochiq turadi :unli ,jarangli undosh tovushlar hosil bo'ladi .

Logopedlarimiz aytishlaricha , nutqdagi kamchiliklarning paydo bo‘lishi, tabiati, inson ruhiyatiga ta’siri turlicha bo‘lar ekan . (Masalan Alaliya, Afaziya, Duduqlanish, Dizatriya). Ular bilish jarayonini, atrofdagi kishilar bilan muomalani qiyinlashtiradi. Bu narsa bolaning faoliyatida, yurish-turishida aks etadi. Og‘ir nutqiy buzilishlar esa insonning aqliy rivojlanishiga, ayniqsa, bilish faoliyati darajalariga, shaxsning shakllanishiga ta’sir etadi. Uning harakteridagi tortinchoqlik, qat’iyatsizlik, odamovilik, nomukammallik tuyg‘usi kabi salbiy xususiyatlarni keltirib chiqaradi. Logopediyaning ahamiyati esa bolaning nutqidagi nuqsonlarni bartaraf etib, ularning har tomonlama barkamol rivojlanishini ta’minlashdan iborat.

Logopediya nutq buzilishini o‘rganish va tuzatishda nutq bilan fikrning o‘zaro bog‘liqligi haqidagi, bola rivojlanishida umumiy va maxsus qonuniyatlarning o‘zaro munosabati to‘g‘risidagi nazariy qoidalarga, nutq va faoliyatning hamohang rivojlanishi hamda ruhiy kamolotga erishishning harakatlantiruvchi kuchlari haqidagi nazariyaga tayanadi. Logopediya umumiy anatomiya va fiziologiya, nutq mexanizmlari, nutq jarayonining bosh miyada sodir bo‘lishi haqidagi, nutq faoliyatida ishtirok etadigan analizatorlarning tuzilishi va harakatga kelishi to‘g‘risidagi bilimlardan foydalanadi.

**XULOSA :** Ushbu maqola logopediya haqida bo‘lib , nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalarni o‘qitish ,tarbiyalash va nutqini to‘g‘irlashni o‘z ichiga oladi . Nutq nuqsonlari o‘zidan o‘zi kelib chiqmaydi . Nutq nuqsonlarining ba’zilari qattiq qo‘rquv tasirida, ba’zilari esa ikki tillilikdan kelib chiqadi. Ikki tillilik bu bola bilan oilda (masalan: rus tilida va inggiliz tilida muloqot qilishsa bola qaysi tilda muloqot qilishni bilmay qoladi oila a’zolari bilan ) bu esa ikki tillilik hisoblanadi. Vaqt o‘tib esa bolada nutq buzilishi kelib chiqadi . ( Masalan : dislaliya, rinolaliya, dizatriya, anatriya .) nutq buzilishlari kelib chiqishi mumkin . Bu nutq buzilishlari og‘zaki nutq buzilishlari turiga kiradi . Logopediyada ikkita nutq buzilish turi mavjud bo‘lib , ular Og‘zaki va yozma nutq buzilishlaridir . Hozirda logopedlarga bo‘lgan ehtiyoj judayam kuchli va yaxshi kadr bo‘lish bizni zimmamizda. Buning uchun biz yoshlar o‘z kasbimizni muttahasisi bo‘lishimiz lozim . Hozirda bog‘chalarda logopedlarning o‘rni judayam katta chunki

,o'sib ulg'ayib kelayotgan yangi avlodni nutqini tekis va ravon chiqarish biz logopedlarni qo'limizdadir .

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. [https://www.google.com/search?q=logopediya&rlz=1C1YTUH\\_ruUZ1067UZ1067&oq=&gs\\_lcrp=EgZjaHJvbWUqCQgAECEMYJxjqAjIJCAAQIxgnGOoCMgkIARajGCcY6gIyCQgCECEMYJxjqAjIJCAMQIxgnGOoCMgkIBBAjGCcY6gIyCQgFECEMYJxjq](https://www.google.com/search?q=logopediya&rlz=1C1YTUH_ruUZ1067UZ1067&oq=&gs_lcrp=EgZjaHJvbWUqCQgAECEMYJxjqAjIJCAAQIxgnGOoCMgkIARajGCcY6gIyCQgCECEMYJxjqAjIJCAMQIxgnGOoCMgkIBBAjGCcY6gIyCQgFECEMYJxjq)
2. C:\Users\Digital\Documents\maqola 3 logopediya.docx

